PELARGONIUMNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA AMALIY AHAMIYATI.

https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.019

Allaberdiyeva Maftuna G'ayrat qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistratura 1-bqich talabasi
Abduraximov Azizbek G'ayrat o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistratura 1-bqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda geranning biologik,ekologik va amaliy ahamiyatlari yoritiladi. Tabiatda inson hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'simliklar dunyosi muhim o'rin tutadi. Ularning orasida geran (Pelargonium) o'zining go'zalligi,nafis hidi va foydali xususiyatlari bilan ajralib turadi Geran guli - nafaqat go'zallik, balki salomatlik manbai hamdir. Bu gul o'zining nafis ko'rinishi,xushbo'y barglari va shifobaxsh xususiyatlari bilan mashhur bo'lgan dekorativ o'simlikdir.

Kalit so'zlar: Pelargonium, efir moyi, parvarish, ko'paytirish, shifobaxsh.

Geran guli (Pelargonium)-bu doim yashil,xushbo'y bargli ko'p yillik o't,ba'zi vakillari yarim buta (polukust) Geraniaceae oilasiga mansub**.** Uning vatani Janubiy Afrika hisoblanadi. Geran o'simligi tabiiy sharoitda odatda 0.3 metrdan 1.2 metrgacha o'sadi,hayot davomiyligi esa odatda 2-5 yilni tashkil qiladi, ammo to'g'ri parvarish qilinganda bu muddat 7 yilgacha cho'zilishi mumkin.Geranning barglari ko'pincha yumaloq yoki yurak shaklida bo'ladi,chetlari mayin tishli. Bargining rangi yashil,ba'zi navlarida qizg'ish yoki binafsha tuslar bilan qoplangan bo'lib o'ziga xos xushbo'y efir moylariga boydir.

Geran ikki jinsli o'simlik bo'lib changchi va urug'chi gullar alohida rivojlanadi.gullari 5 ta gulbargdan iborat bo'lib,ba'zan simmetrik,ba'zan notekis shaklda bo'ladi. Gulining ranglari:oq,pushti,qizil,binafsha,sariq va hatto ikki rangli navlari ham mavjud. Geran odatda bahor oxiri va yozda gullaydi.To'g'ri parvarish qilinganda esa gullash davri kuzgacha davom etadi. Geran o'simligining mevasi-laylak tumshug'iga o'xshash,quruq,kapsula shaklidagi mevadir. Bu o'simlik lotincha nomi Pelargonium (yunoncha ,,pelargos,,-laylak) bilan bog'liq bo'lib,aynan meva shakli tufayli shunday nomlangan. Har bir kapsula ichida bir necha urug' bo'ladi Geran yorug'likni yaxshi ko'radi, lekin yozda to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan saqlash kerak. Bahor va yozda tuproq qurib qolmasligi uchun muntazam ravishda sug'oriladi. Har 2 haftada suyuq o'g'it berish tavsiya etiladi. Tepa shoxlarini muntazam kesish o'simlikni shoxlab,ko'proq gul chiqarishga yordam beradi.Qurigan gullar va barglarni olib tashlash gullashni rag'batlantiradi. Qishda barglarini purkash zamburug'li kasalliklarga olib kelishi mumkin,shuning uchun undan saqlanish lozim.

Geran o’simligi asosan vegetativ (qalamcha bilan) va generative (urug’ bilan) usullar orqali ko’paytiriladi. Har ikkala usul ham samarali,lekin qalamcha bilan ko’paytirish tezroq natija beradi va nav xususiyatlarini saqlaydi.

Geran efir moyi tarkibida geraniol, citronellol, linalool kabi faol moddalar mavjud bo’lib, u teri,ruhiy holat va immunitet uchun foydali xususiyatlarga ega .

Geran efir moyi Pelargonium graveolens o’simligi barglaridan bug’da distillash orqali olinadi. Uning asosiy kimyoviy komponentlari:

Modda	Foydasi
Geraniol	Antibakterial,antifungal,tinchlantiruvchi ta’sir
Citronellol	Yalig’lanishga qarshi,teri uchun foydali
Linalool	Stresni kamaytiradi,tinchlantiradi
Menton	Teri elastikligini oshiradi
Isomenton	Qon aylanishini rag’batlantiradi

Foydali xususiyatlari:

1.Teri parvarishi: Akne,yog’li teri,ajinlar va dermatitda samarali.Teri hujayralarini tiklaydi,elastikligini oshiradi.

2.Ruhiy holatni yaxshilaydi; Arometerapiyada stress va depressiyani kamaytiradi. Kayfiyatni ko’taradi uyquni yaxshilaydi.

3.Ayollar salomatligi; Menstruatsiya og’rig’ini kamaytiradi.Gormon muvozanatini tartibga solishga yordam beradi.

4.Antibakterial va antifungal ta’sir: Yaralarni tez bitkazadi.Teridagi yallig’lanish va infeksiyalarga qarshi kurashadi.

5.Immunitetni qo’llab-quvatlaydi: Organizmning tabiiy himoya tizimini faollashtiradi.

Sovuq tushish mavsumida profilaktika sifatida ishlatish.

Geran o’simligi sanoatda asosan efir moyi olishda, parfyumeriya, kosmetika, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatida keng qo’llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, Geran (Pelargonium)-o’zining biokimyoviy tarkibi, shifobaxsh va estetik qiymati bilan qimmatli o’simliklar qatorida turadi. U nafaqat manzarali o’simlik sifatida, balki tibbiyot sohasida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu o’simlikni ekish va parvarishlash bo’yicha ilmiy izlanishlar ekologik barqarorlik va biologik xilma-xillikni saqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1Abdullayeva N. “Dorivor o‘simliklarning biologiyasi”. – Toshkent: Fan, 2019.

2. Karimov A., Botanika asoslari. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.

3. https://www.botanichka.ru/article/laurus/.

4. Altın B., Işık S., Alp E., Dikici E., Köksal E., Kırboğa K., Rudrapal M., Rakshit M., Beydemir Ş., Khan F.A.Therapeutic potential of Laurus nobilis extract by experimental and computational approaches. 2025 y

5. Awada F., Hamade K., Kassir M., Hammoud Z., Mesnard F., Rammal H., Fliniaux O. Laurus nobilis Leaves and Fruits: A Review of Metabolite Composition and Interest in Human Health. 2023c